O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884

ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol. 2 No. 4

2026

International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research

Volume 2 Issue 4
2026

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali

4-son
2026

Международный журнал современных научно-технических исследований

Том 2 Выпуск 4
2026

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas’ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay’ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O’zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O’zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro‘yxatidan o‘tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O‘zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© “O‘zMU Jizzax filiali” – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko‘chasi, 259-uy.

CHET TILLARINI O‘QITISHDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH: ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA ILMIY YONDASHUVLAR TAHLILI

Nishonova Gulchehra Ravshanjon qizi

Andijon viloyati Marhamat tumani 23-umumta’lim maktabi, o‘qituvchi.

Annotatsiya.

Mazkur maqolada chet tillarini, xususan, ingliz tilini o‘qitishda sun’iy intellektdan foydalanishga bag‘ishlangan zamonaviy ilmiy tadqiqotlar qiyosiy-tahliliy jihatdan o‘rganilgan. Tahlilda xalqaro ilmiy maqolalar hamda O‘zbekiston ta’lim sharoitida bajarilgan dissertatsiyalarda keltirilgan ilmiy natijalardan foydalanildi. Tadqiqotlarda qo‘llangan metodlar, o‘rganilgan sun’iy intellekt (AI) vositalari, til ko‘nikmalari va pedagogik imkoniyatlar ko‘rib chiqildi. Maqolalar natijalari sun’iy intellekt vositalari o‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqini rivojlantirish, motivatsiyani oshirish va mustaqil ta’limni qo‘llab-quvvatlash imkoniyatiga ega ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tadqiqotlar sun’iy intellekt samaradorligi universal emasligini, uning natijasi ta’lim muhiti, o‘quvchi-talabalarning xususiyatlari, texnologiya turi va pedagogik metodikaga ham bog‘liqligini ko‘rsatmoqda.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, chet tili, chatbot, individuallashtirilgan ta’lim, nutqiy kompetensiya, yozma ko‘nikma, raqamli kompetensiya, pedagogik texnologiya.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ: АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ И НАУЧНЫХ ПОДХОДОВ

Нишонова Гулчехра Равшанжон кизи

Общеобразовательная школа № 23 Мархаматского района Андижанской области, учитель.

Аннотация.

В данной статье на основе сравнительно-аналитического подхода изучены современные научные исследования, посвящённые использованию искусственного интеллекта в преподавании иностранных языков, в частности английского языка. В ходе анализа использованы научные результаты, представленные в международных научных статьях, а также в диссертационных исследованиях, выполненных в условиях образовательной системы Узбекистана. Рассмотрены методы, применяемые в исследованиях, изученные инструменты искусственного интеллекта (ИИ), языковые навыки и педагогические возможности. Результаты проанализированных научных работ показывают, что инструменты искусственного интеллекта обладают потенциалом для развития письменной и устной речи учащихся, повышения мотивации и поддержки самостоятельного обучения. Вместе с тем исследования свидетельствуют о том, что эффективность искусственного интеллекта не является универсальной, а её результаты зависят также от образовательной среды, индивидуальных особенностей школьников и студентов, типа используемых технологий и педагогической методики.

Ключевые слова: искусственный интеллект, иностранный язык, чат-бот, индивидуализированное обучение, речевая компетенция, навыки письменной речи, цифровая компетенция, педагогическая технология.

THE USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING: AN ANALYSIS OF CONTEMPORARY RESEARCH AND SCIENTIFIC APPROACHES

Nishonova Gulchehra Ravshanjon qizi

General Education School No. 23, Marhamat District, Andijan Region, Teacher.

Abstract.

This article presents a comparative and analytical review of contemporary scientific research devoted to the use of artificial intelligence in foreign language teaching,

particularly English language instruction. The analysis draws on findings from international scientific articles and dissertation studies conducted within the educational context of Uzbekistan. The methods employed in these studies, the artificial intelligence (AI) tools examined, language skills, and pedagogical opportunities are reviewed. The findings of the analyzed studies indicate that artificial intelligence tools have the potential to develop learners' written and oral communication skills, increase motivation, and support independent learning. At the same time, the research demonstrates that the effectiveness of artificial intelligence is not universal, as its outcomes also depend on the educational environment, the individual characteristics of school and university students, the type of technology used, and the pedagogical methodology applied.

Keywords: artificial intelligence, foreign language, chatbot, individualized learning, communicative competence, writing skills, digital competence, pedagogical technology.

Kirish. So'nggi yillarda sun'iy intellektning ta'lim jarayoniga kirib kelishi chet tillarini o'qitish metodikasida yangi ilmiy va amaliy imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, chatbotlar, avtomatlashtirilgan yozuvni baholash vositalari, nutqni tanish texnologiyalari, ta'lim platformalari va boshqa AI vositalari o'quvchiga mustaqil mashq qilish hamda real muloqotga yaqin sharoit yaratish imkonini bermoqda. Biroq sun'iy intellektni ta'limga joriy etish masalasiga faqat uning ijobiy imkoniyatlari nuqtayi nazaridan yondashish yetarli emas. Turli tadqiqotlarda AI vositalarining samaradorligi bilan bir qatorda ularning cheklovlari, pedagogik xavflari va foydalanish shartlari ham ko'rsatilgan. Uning ta'limiy qiymati qanday maqsadda, qaysi metod asosida va qanday pedagogik sharoitda qo'llanilishiga bog'liq. Shu sababli so'nggi yillarda AI va ingliz tilini o'qitish munosabatini o'rganuvchi tizimli sharhlar hamda tahlillar soni ortib bormoqda. Mazkur maqolaning dolzarbligi ham aynan shundan kelib chiqadi: mavjud tadqiqotlarda sun'iy intellektning samaradorligi turli metodologik yondashuvlar asosida o'rganilgan. Shu sababli ushbu tadqiqotlarda keltirilgan ma'lumotlarni o'rganish va umumiy xulosaga kelish muhimdir.

Sun'iy intellektning rivojlanishi ta'lim jarayoniga, xususan, chet tillarini o'qitishga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. O'rganilgan ilmiy tadqiqotlarda sun'iy intellekt vositalaridan ingliz tilini o'qitishning turli bosqichlarida foydalanish mumkinligi ko'rsatilgan. Ayniqsa, o'quvchilarning yozish va gapirish ko'nikmalarini rivojlantirish, grammatik xatolarni aniqlash, lug'at boyligini oshirish, talaffuzni yaxshilash hamda o'quvchiga tezkor fikr-mulohaza berishda sun'iy intellekt vositalarining imkoniyatlari ko'proq ta'kidlangan. Shu jihatdan qaraganda, sun'iy intellektni faqat texnik vosita sifatida emas, balki o'quvchining mustaqil ishlashini qo'llab-quvvatlaydigan yordamchi vosita sifatida ko'rish mumkin. Crompton, Edmett, Ichaporia va Burke tomonidan olib borilgan tadqiqotda ingliz tilini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishga oid 42 ta ilmiy ish tahlil qilingan. Tadqiqotchilar sun'iy intellektning gapirish, yozish, o'qish, pedagogik faoliyat va o'quvchining o'z-o'zini boshqarib o'rganishi kabi yo'nalishlarda qo'llanayotganini ko'rsatganlar. Bu tadqiqotning muhim jihati shundaki, unda sun'iy intellektning faqat ijobiy tomonlari emas, balki undan foydalanishda uchraydigan muammolar ham ko'rib chiqilgan. Masalan, texnik nosozliklar, ayrim sun'iy intellekt vositalarining imkoniyatlari cheklanganligi, o'quvchilarning texnologiyadan foydalanishdagi xavotirlari va tilning haddan tashqari standartlashtirilishi kabi muammolar qayd etilgan [1]. Bu holat sun'iy intellektdan foydalanish doimo ham avtomatik ravishda yaxshi natija beradi, degan fikrni to'liq tasdiqlamasligini ko'rsatadi. Uning natijasi ko'p jihatdan vositaning qanday maqsadda va qanday metod asosida qo'llanilishiga bog'liq. Crompton va uning hamkorlari tadqiqotida sun'iy intellektning gapirish ko'nikmasini rivojlantirishdagi imkoniyatlari ham alohida ko'rinadi. O'quvchi sun'iy intellekt asosidagi suhbat vositalari orqali ingliz tilida muloqot qilishi, o'z fikrini ifodalashi va xatolar ustida ishlashi mumkin. Bunday imkoniyat, ayniqsa, real muloqot qilish uchun yetarli sharoit bo'lmagan holatlarda foydali bo'lishi mumkin. O'quvchi o'z xatosidan uyalmasdan qayta-qayta mashq qilishi mumkin. Shu bilan birga, tadqiqotlarda ayrim hollarda sun'iy intellekt o'quvchining nutqini to'g'ri tushunmasligi yoki javoblarni yetarlicha aniq bera olmasligi ham qayd etilgan [1]. Demak, sun'iy intellekt orqali gapirishni rivojlantirish imkoniyati mavjud bo'lsa-da, o'qituvchining nazorati va yo'naltirishi hali ham muhim hisoblanadi.

Yozish ko'nikmasi bo'yicha ham sun'iy intellektning imkoniyatlari keng. O'quvchi yozgan matnini sun'iy intellekt yordamida tekshirishi, grammatik yoki imloviy xatolarini aniqlashi va matnni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar olishi mumkin. Bunday imkoniyat o'quvchiga o'z xatolarini ko'rish va ularni mustaqil ravishda tuzatishga yordam beradi. Daud va hammualliflar tomonidan olib borilgan tizimli tadqiqotda ham sun'iy intellektning ingliz tilini o'qitishdagi eng ko'p uchraydigan qo'llanishlaridan biri yozuvni qo'llab-quvvatlash ekanligi ko'rsatilgan [2]. Tadqiqotda grammatika tekshiruvchilari, chatbotlar va til o'rganishga mo'ljallangan boshqa sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish holatlari tahlil qilingan. Bu natijalar sun'iy intellekt o'quvchining yozma ishini tayyorlab berishdan ko'ra, uning yozish jarayonini qo'llab-quvvatlash uchun ishlatilganda ko'proq pedagogik ahamiyatga ega bo'lishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, yozish jarayonida sun'iy intellektdan ortiqcha foydalanish ayrim muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Agar o'quvchi barcha yozma ishlarini sun'iy intellekt yordamida tayyorlasa, uning mustaqil fikrlashi va o'z fikrini ingliz tilida ifodalash qobiliyati yetarlicha rivojlanmasligi mumkin. Daud va hammualliflarining tadqiqotida ham akademik halollik, sun'iy intellektga haddan tashqari bog'lanib qolish, texnik muammolar va ayrim lingvistik cheklovlar asosiy muammolar qatorida ko'rsatilgan. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchiga sun'iy intellektdan qanday foydalanish kerakligini

tushuntirishi, undan foydalanish bilan birga oʻquvchining mustaqil ishlashini ham talab qilishi zarur.

Sun'iy intellektning ingliz tilini oʻrganishdagi samaradorligi Ekizer tomonidan olib borilgan meta-tahlilda ham oʻrganilgan. Ushbu tadqiqotda 2019–2025-yillarda olib borilgan tajribaviy va kvazi-tajribaviy tadqiqotlar umumlashtirilgan. Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt asosidagi vositalar ingliz tilini oʻrganish natijalariga ijobiy ta'sir koʻrsatishi mumkinligini koʻrsatgan. Ayniqsa, yozishning aniqligi, gapirish ravonligi va oʻquvchilarning motivatsiyasi bilan bogʻliq ijobiy natijalar qayd etilgan [3]. Bundan tashqari, sun'iy intellektdan foydalanish ayrim oʻquvchilarda til oʻrganish bilan bogʻliq xavotirni kamaytirishi va oʻqishga qiziqishni oshirishi mumkinligi aniqlangan. Ekizer tadqiqotining yana bir muhim jihati shundaki, barcha tadqiqotlarda bir xil natija olinmagan. Natijalarning farq qilishi ta'lim muhiti, oʻquvchilarning darajasi, foydalanilgan sun'iy intellekt vositasi va baholash usullariga bogʻliq boʻlishi mumkin. Bu fikr sun'iy intellektning ta'limdagi samaradorligini faqat texnologiyaning oʻziga bogʻlab qoʻyish toʻgʻri emasligini koʻrsatadi. Masalan, bir guruh oʻquvchilar uchun chatbot orqali suhbatlashish samarali boʻlishi mumkin, boshqa guruh uchun esa yozuvni tekshirish yoki individual mashqlar koʻproq foyda berishi mumkin. Demak, sun'iy intellekt vositasini tanlashda oʻquvchilarning ehtiyoji, bilim darajasi va darsning maqsadini hisobga olish kerak. Oʻrganilgan tadqiqotlarda sun'iy intellektning individual ta'lim imkoniyatlari ham alohida ahamiyatga ega. An'anaviy dars jarayonida barcha oʻquvchilarga bir xil topshiriq berilishi mumkin, biroq oʻquvchilarning bilim darajasi va oʻzlashtirish tezligi bir xil emas. Sun'iy intellekt vositalari esa ayrim hollarda oʻquvchining javoblariga qarab keyingi topshiriqlarni moslashtirish, qoʻshimcha mashq berish yoki tushunmagan mavzusini qayta izohlash imkonini beradi. Shu sababli AI individual ta'limni tashkil etishda yordamchi vosita boʻla oladi. Bu jihat, ayniqsa, oʻquvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olishga qaratilgan zamonaviy ta'lim yondashuvlari bilan mos keladi.

M. A. Kasimovaning akademik litsey oʻquvchilariga xorijiy tillarni oʻqitishda sun'iy intellektdan foydalanishga bagʻishlangan tadqiqoti ham shu masala uchun muhim hisoblanadi. Tadqiqotda akademik litsey oʻquvchilariga xorijiy tilni oʻrgatishda adaptiv ta'lim platformalari, chatbotlar, virtual til almashinuvi, muloqot simulyatsiyasi hamda interaktiv va oʻyinlashtirilgan mashqlardan foydalanish imkoniyatlari koʻrib chiqilgan [4]. Tadqiqotda grammatik toʻgʻrilik, lugʻat boyligi, talaffuz va intonatsiya, ravonlik hamda izchillik kabi koʻrsatkichlarga e'tibor qaratilgan. Bu jihatdan ushbu tadqiqot sun'iy intellekt vositalarini faqat bitta til koʻnikmasi bilan cheklamasdan, til oʻrganish jarayonining bir nechta tomonlarini rivojlantirishga yoʻnaltirish mumkinligini koʻrsatadi. Kasimova tadqiqotida sun'iy intellekt asosidagi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish auditoriya va auditoriyadan tashqari mashgʻulotlarni tashkil etishda ham qoʻllanilgan. Bu esa oʻquvchining faqat dars vaqtida emas, balki mustaqil ishlash jarayonida ham til bilan shugʻullanishiga imkon yaratadi. Ayniqsa, ingliz tilida gapirishni rivojlantirishda doimiy mashq qilish muhim boʻlganligi sababli, sun'iy intellekt asosidagi suhbat vositalari oʻquvchiga qoʻshimcha mashq imkoniyatini berishi mumkin. Biroq bunda ham oʻqituvchining roli kamaymaydi. Aksincha, oʻqituvchi sun'iy intellektdan olingan ma'lumotni nazorat qilishi, oʻquvchining xatolarini tahlil qilishi va keyingi topshiriqlarni belgilashi kerak. Tanlangan tadqiqotlarni solishtirganda, ularning umumiy jihati sun'iy intellektning oʻquvchiga tezkor yordam berishi bilan bogʻliq ekanini koʻrish mumkin. An'anaviy darsda oʻquvchi yozgan matn yoki bajargan topshiriq boʻyicha oʻqituvchidan javob olishi uchun ma'lum vaqt kutishi mumkin. Sun'iy intellekt vositalarida esa ayrim hollarda fikr-mulohaza darhol beriladi. Bu oʻquvchiga xatosini oʻsha zahoti koʻrish va qayta ishlash imkonini beradi. Ayniqsa, grammatik mashqlar, yozma topshiriqlar va muloqot mashqlarida bunday tezkorlik foydali boʻlishi mumkin. Bundan tashqari, sun'iy intellekt oʻquvchining motivatsiyasiga ham ta'sir qilishi mumkin. Ekizer tadqiqotida AI vositalaridan foydalanish oʻquvchilarning motivatsiyasi va oʻqishdan zavqlanishiga ijobiy ta'sir koʻrsatgani qayd etilgan. Buning sabablaridan biri oʻquvchining texnologiya bilan faol muloqot qilishi va topshiriqlarni odatdagi usullardan farqli tarzda bajarishidir. Masalan, chatbot bilan suhbatlashish yoki sun'iy intellekt yordamida matn ustida ishlash ayrim oʻquvchilar uchun qiziqarliroq boʻlishi mumkin. Shu bilan birga, bunday qiziqish doimiy ta'lim natijasiga aylanishi uchun topshiriqlar pedagogik maqsad asosida tashkil etilishi lozim. Shuningdek, sun'iy intellektdan foydalanishda oʻqituvchining roli masalasi alohida ahamiyatga ega. Oʻrganilgan manbalarda AI oʻqituvchining oʻrnini toʻliq egallashi kerak degan fikr ilgari surilmagan. Aksincha, sun'iy intellekt oʻqituvchiga yordam beruvchi vosita sifatida qaraladi. Oʻqituvchi darsning maqsadini belgilaydi, oʻquvchining ehtiyojini aniqlaydi, mos topshiriqlarni tanlaydi va AI tomonidan berilgan ma'lumotlarning toʻgʻriligini nazorat qiladi. Shuning uchun sun'iy intellektdan samarali foydalanish uchun nafaqat oʻquvchilarning, balki oʻqituvchilarning ham raqamli kompetensiyasini rivojlantirish zarur.

AI vositalarining yana bir muhim muammosi — berilgan ma'lumotlarning har doim ham toʻgʻri boʻlmasligi. Sun'iy intellekt ba'zan grammatik yoki mazmuniy jihatdan notoʻgʻri javob berishi, ayrim iboralarning madaniy ma'nosini toʻliq tushunmasligi mumkin. Crompton va hammualliflari ham AI vositalarining cheklangan imkoniyatlari va tilni standartlashtirish bilan bogʻliq muammolarni qayd etganlar. Shu sababli oʻquvchi AI tomonidan berilgan har qanday javobni toʻgʻri deb qabul qilmasligi kerak. Bu yerda oʻqituvchining tushuntirishi va nazorati muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, oʻrganilgan tadqiqotlar sun'iy intellektning chet tillarini, ayniqsa, ingliz tilini oʻqitishda katta imkoniyatlarga ega ekanligini koʻrsatmoqda. AI vositalari oʻquvchining yozish, gapirish va boshqa til koʻnikmalarini rivojlantirishga, mustaqil ishlashiga, tezkor fikr-mulohaza olishiga va oʻqishga boʻlgan qiziqishini oshirishga yordam berishi mumkin. Shu bilan birga, sun'iy intellektdan foydalanishning samarasi uni qanday tashkil etish va qanday maqsadda qoʻllashga bogʻliq. AI oʻqituvchini almashtiruvchi vosita emas, balki oʻqituvchi va oʻquvchiga yordam beruvchi zamonaviy texnologiya sifatida qaralishi maqsadga muvofiq. Ayniqsa, individual ta'limni tashkil etish, oʻquvchining bilim

darajasiga mos topshiriqlar berish va mustaqil ishlash imkoniyatlarini kengaytirishda uning imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanish mumkin. Shunday ekan, chet tillarini o‘qitishda sun’iy intellektdan foydalanish masalasi zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, undan samarali foydalanish uchun texnologik imkoniyatlar bilan bir qatorda pedagogik yondashuv va o‘qituvchi nazorati ham hisobga olinishi kerak.

Jiang tomonidan olib borilgan tadqiqotda ham sun’iy intellektning EFL ta’limidagi imkoniyatlari turli yo‘nalishlarda ko‘rib chiqilgan. Unda AI asosidagi texnologiyalar til o‘rganish jarayonini shaxsiylashtirish, o‘quvchiga individual yordam ko‘rsatish va ta’lim jarayonini yanada moslashuvchan tashkil etish imkoniyatiga ega ekanligi ta’kidlangan [5]. Ayniqsa, o‘quvchining ehtiyojiga mos ravishda mashq va topshiriqlarni tanlash imkoniyati an’anaviy bir xil topshiriqlardan farqli yondashuvni shakllantiradi. Shu sababli AI vositalaridan foydalanish individual ta’limni tashkil etishda qo‘shimcha pedagogik imkoniyat yaratishi mumkin.

Sun’iy intellektning lug‘at o‘rganishdagi imkoniyatlari ham alohida e’tiborga loyiq. Jeon tadqiqotida chatbot yordamida dinamik baholash orqali ikkinchi til lug‘atini o‘rganish va o‘quvchining mavjud bilimlarini aniqlash masalasi o‘rganilgan [6]. Bunday yondashuvda o‘quvchining javoblari asosida keyingi faoliyatni moslashtirish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Bu esa lug‘atni shunchaki yodlashdan ko‘ra, uni turli vaziyatlarda qo‘llash va o‘zlashtirish jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etishga yordam beradi.

AI vositalarining til o‘rganishdagi samarasi faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy tadqiqotlar orqali ham o‘rganilmoqda. Kemelbekova va hammualliflarining tadqiqotida ingliz tilini chet tili sifatida o‘qitishda AI texnologiyalarining samaradorligi va istiqbollari tahlil qilingan [7]. Tadqiqot natijalari sun’iy intellekt vositalaridan maqsadli foydalanish til o‘rganish jarayonini qo‘llab-quvvatlashi mumkinligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, texnologiyani darsga shunchaki kiritishning o‘zi yetarli emasligi, undan foydalanish ta’lim maqsadlari bilan bog‘langan bo‘lishi kerakligi muhim hisoblanadi.

AI texnologiyalaridan foydalanishda o‘quvchining tanqidiy fikrlashiga ham e’tibor qaratish zarur. Liu va Wang tomonidan olib borilgan tadqiqotda ingliz tili va adabiyoti mashg‘ulotlarida AI vositalaridan foydalanishning o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashiga ta’siri o‘rganilgan [8]. Bu jihat sun’iy intellektdan foydalanish jarayonida o‘quvchi tayyor ma’lumotni shunchaki qabul qilmasdan, uni tahlil qilishi, taqqoslashi va o‘z nuqtayi nazarini shakllantirishi kerakligini ko‘rsatadi. Demak, AI vositalari to‘g‘ri tashkil etilgan topshiriqlar orqali o‘quvchining faqat til ko‘nikmalarini emas, balki fikrlash faoliyatini ham qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Shuningdek, Liu va hammualliflari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sun’iy intellekt qo‘llab-quvvatlaydigan yozuv muhitida refleksiv fikrlashni rivojlantirish masalasi ham o‘rganilgan [9]. Ushbu yondashuvda o‘quvchi yozgan matnini qayta ko‘rib chiqishi, xatolarini aniqlashi va o‘z ishini takomillashtirishi uchun texnologik yordamdan foydalanadi. Bu jarayon o‘quvchini o‘z faoliyati haqida fikr yuritishga undaydi. Shuning uchun AI vositalarining pedagogik qiymatini faqat tezkor javob berish bilan emas, balki o‘quvchini o‘z ta’lim faoliyatini nazorat qilishga undashi bilan ham baholash mumkin. O‘rganilgan manbalar asosida shuni aytish mumkinki, sun’iy intellektning ingliz tilini o‘qitishdagi imkoniyatlari bir nechta alohida vositalar bilan cheklanmaydi. Chatbotlar, avtomatik baholash tizimlari, nutqni aniqlash texnologiyalari, tarjima vositalari va yozuvni qo‘llab-quvvatlovchi dasturlar turli pedagogik vazifalarni bajarishi mumkin. Biroq ularning samaradorligi o‘qitish maqsadi, o‘quvchining ehtiyoji va topshiriqning qanday tashkil etilganiga bog‘liq. Shu sababli AI texnologiyalaridan foydalanishda texnologiyaning mavjudligi emas, balki undan pedagogik jihatdan maqsadli foydalanish muhim omil hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt texnologiyalaridan ta’lim jarayonida, xususan, chet tilini o‘qitishda foydalanish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt vositalari o‘quvchilarning individual ehtiyojlari va til o‘rganish darajasini hisobga olish, o‘quv materiallarini moslashtirish hamda ta’lim jarayonini yanada interaktiv tashkil etish imkonini beradi. Sun’iy intellekt asosidagi vositalardan foydalanish orqali o‘quvchilarning tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratiladi. Ayniqsa, individual topshiriqlarni shakllantirish, tezkor fikr-mulohaza berish va o‘quvchining xatolarini aniqlash imkoniyatlari chet tilini o‘zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt o‘qituvchining faoliyatini to‘liq almashtirmaydi, balki uning pedagogik faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida qaralishi lozim. Tadqiqot natijalari sun’iy intellektdan maqsadli va pedagogik jihatdan asoslangan holda foydalanish ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil ishlash faolligini kuchaytirish hamda chet tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirishga yordam berishini ko‘rsatadi. Shu sababli ingliz tilini o‘qitish jarayonida sun’iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanish metodikasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Crompton H., Edmett A., Ichaporia N., Burke D. AI and English Language Teaching: Affordances and Challenges // British Journal of Educational Technology. – 2024. – Vol. 55, № 6. – P. 2503–2529. – DOI: 10.1111/bjet.13460.

2. Daud A., Aulia A. F., Muryanti, Harfal Z., Nabilla O., Ali H. S. Integrating Artificial Intelligence into English Language Teaching: A Systematic Review // European Journal of Educational Research. – 2025. – Vol. 14, № 2. – P. 677–691. – DOI: 10.12973/eu-jer.14.2.677.

3. Ekizer F. N. Exploring the Impact of Artificial Intelligence on English Language Teaching: A Meta-Analysis // Acta Psychologica. – 2025. – Vol. 260. – Art. 105649.

4. Kasimova M. A. Akademik litsey o‘quvchilariga xorijiy tillarni o‘qitishda sun’iy intellektdan foydalanishning innovatsion texnologiyasi: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025.

5. Jiang R. How Does Artificial Intelligence Empower EFL Teaching and Learning Nowadays? A Review on Artificial Intelligence in the EFL Context // Frontiers in Psychology. – 2022. – Vol. 13. – Art. 1049401.

6. Jeon J. Chatbot-Assisted Dynamic Assessment (CA-DA) for L2 Vocabulary Learning and Diagnosis // Computer Assisted Language Learning. – 2023. – Vol. 36, № 7. – P. 1338–1364.

7. Kemelbekova Z., Degtyareva X., Yessenaman S., Ismailova D., Seidaliyeva G. AI in Teaching English as a Foreign Language: Effectiveness and Prospects in Kazakh Higher Education // XLinguae. – 2024. – Vol. 17, № 1. – P. 69–83.

8. Liu W., Wang Y. The Effects of Using AI Tools on Critical Thinking in English Literature Classes among EFL Learners: An Intervention Study // European Journal of Education. – 2024. – Vol. 59, № 4. – Art. e12804.

9. Liu C., Hou J., Tu Y. F., Wang Y., Hwang G. J. Incorporating a Reflective Thinking Promoting Mechanism into Artificial Intelligence-Supported English Writing Environments // Interactive Learning Environments. – 2023. – Vol. 31, № 9. – P. 5614–5632.